

ISSUES OF DEVELOPMENT OF INSURANCE MARKET IN MODERN CONDITIONS IN UZBEKISTAN

Gulmira Aralova is the daughter of Bakhrom

Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan
the listener

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10911426>

ARTICLE INFO

Received: 24th March 2024

Accepted: 30th March 2024

Online: 31th March 2024

KEYWORDS

Insurance, insurance market, insurance services, insurance system, insurance market participants, investments, information and communication technologies, digitization.

ABSTRACT

The article examines the insurance market of Uzbekistan, its development opportunities and prospects, and draws conclusions and suggestions on the topic.

ZAMONAVIY SHAROITDA O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Aralova Gulmira Baxrom qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
tinglovchisi

e-mail: gulmiraxon157@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10911426>

ARTICLE INFO

Received: 24th March 2024

Accepted: 30th March 2024

Online: 31th March 2024

KEYWORDS

Sug'urta, sug'urta bozori, sug'urta xizmatlari, sug'urta tizimi, sug'urta bozori ishtirokchilari, investitsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamlashtirish.

ABSTRACT

Maqolada O'zbekiston sug'urta bozori, uning rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari ko'rib chiqilgan hamda mavzu yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kirish. Bugun O'zbekiston jadal o'sib borayotgan iqtisodiy vaziyatni boshidan kechirmoqda. Mamlakat diversifikatsiya qilish, xorijiy sarmoyalarni jalg qilish va o'z fuqarolari uchun moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlashga asosiy e'tiborini qaratmoqda. Ushbu



o'zgarishlarning bir qismi sifatida mustahkam va rivojlanayotgan sug'urta bozori uzoq muddatli barqarorlik va o'sish uchun kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Sug'urta kutilmagan hodisalar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy qiyinchiliklardan hal qiluvchi qalqon bo'lib, jismoniy shaxslar va korxonalarni himoya qiladi va moliyaviy xavfsizlik madaniyatini rivojlantiradi. Shu sababli, sug'urta O'zbekiston kabi bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarga bozor munosabatlarining shakllanishida ulkan imkoniyatlar ochuvchi vosita bo'lib hizmat qiladi. Biroq, bu potentsialni to'liq ochib berish uchun O'zbekistonda sug'urta mahsulotlarini kengroq qo'llashga to'sqinlik qilayotgan muammolarni tan olish zarur. Bu muammolar aholining sug'urtaning afzalliklari haqida xabardorligi yo'qligidan tortib, taklif etilayotgan mahsulotlarning cheklangan turigacha bo'lgan holatlarni qamrab oladi.

Ushbu maqolada zamonaviy sharoitda O'zbekistonda sug'urta bozorining tahlili hamda rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Maqolaning dolzarbliги

O'tgan yillarda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish, sug'urta faoliyatini samarali tashkil qilish, yurtimizdagi barcha sohalarda ish faoliyatini strategik reja asosida, xizmat ko'rsatish tashkilotlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar qa'bul qilindi. Ana shunday qarorlardan biri bu, 2021-yil 23-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5265-qarori¹ hisoblanadi. Ushbu qarorda 2022-yil 1-iyuldan boshlab sug'urtaning barcha turlarini elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat berilishi, 2023-yil 1-yanvardan boshlab majburiy sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta polislarini qog'oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinishi qayd etilgan. Milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilishning asosiy yo'nalishi respublikada sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish asoslarini mustahkamlash uchun vazifalar belgilab berilgan.

Shu munosabat bilan mamlakat sug'urta bozorining hozirgi holatini tahlil qilish va uning rivojlanish istiqbollarini aniqlash vazifasi dolzarbligicha qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qarorlaridan shuningdek, Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 10-iyuldagagi sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilishdagi topshiriqlaridan mavzunig bosh manbasi sifatida foydalanildi.

Qolaversa, mavzuni sug'urta bozoriga oid ilmiy ma'lumotlar bilan izchil yoritishda Toshkent Iqtisodiyot universiteti professorlari S.Shiriniv, I.Kenjayev, X.Shennayev va I.Ochilovlar muallifligidagi " Sug'urta ishi " darsligidan samarali foyda olindi.

Mavzuga doir statistik ma'lumotlar Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi saytining hisobotlariga shuningdek, asosan Xprimmm.com sayti ma'lumotlari asosida yillar kesimida saralab olindi va tahlil uchun manba sifatida foydalanildi.


¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5265-qarori .



Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylig, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

O'zbekiston Respublikasi sug'urta xizmatlari bozorida keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish turli mulkchilik shaklidagi sug'urta tashkilotlarining vujudga kelishi bilan bir qatorda yangi sug'urta xizmatlarining yo'lga qo'yilishiga qulay shart-sharoit yaratildi. Chunki iqtisodiy sub'ektlar o'rtasida risklarni qayta taqsimlashga va jamg'arish orqali zararni qoplashga yordam berish orqali sug'urta iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bugungi kunda sug'urta munosabatlarni rivojlantirish asosida sug'urta bozorining ko'lhamini kengaytirish, uzoq qishloq joylarida sug'urta tashkilotlari filial va bo'linmalarining ochilishi, sug'urta bozoriga yangi xizmatlar taklif etish, sug'urta qonunchiligini takomillashtirish dolzarb masalalar bo'lib qolmoqda (1-rasm).



1-rasm. Sug'urta bozori rivojlantirilishi zaruratining o'ziga xos sabablari².

Bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida sug'urta bozorini rivojlantirish uchun O'zbekistonda hozirga qadar sezilarli qadamlar qo'yildi. Birinchidan, mustaqil sug'urta xizmatlar tizimi tashkil qilindi. Faoliyat jihatidan respublika miqyosida mustaqil tashkilotga aylandi. Sug'urta O'zbekiston Moliya vazirligi tarkibidan chiqib, davlat bosh iqtisodiy islohotchi bo'lgani holda davlat aksiyadorlik hamda boshqa mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari tashkil etildi.

Ikkinchidan, alohida sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun qabul qilindi, undarespublikamizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olindi. Uchinchidan, xorijiy mamlakatlardagi sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik kuchaydi, ular ishtirokida qo'shma sug'urta tashkilotlari tashkil qilindi. Milliy sug'urta tashkilotlari jahon sug'urta tashkilotlari qatoridan o'rin egalladi.

² Muallif ishlanmasi



To'rtinchidan, sug'urta mablag'lardan investitsiya maqsadlarida foydalanish asosida ularning moliyaviy ahvoli barqarorlashdi, xorijiy mamlakatlar mablag'lardan investitsiya maqsadlari uchun foydalanishda sug'urta tashkilotlarining vositachilik roli vujudga keldi.

Beshinchidan, sug'urta tashkilotlari bilan kredit muassasalarining hamkorligi kuchaydi. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bankdan olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarilishiga qaratilgan sug'urta faoliyati kengaydi. Sug'urta qishloq xo'jaligi korxonalariga nisbatan ham joriy qilindi.

Oltinchidan, sug'urta xizmatlari bozorida ixtiyoriy sug'urta turlarining jadal rivojlanishi kuzatildi. Shuningdek, majburiy sug'urtalashning qonunchilik asoslari va ularning ustuvor yo'naliishlari joriy etila boshlandi.

Yettinchidan, sug'urtaning xalq farovonligini yaxshilashdagi roliga alohida ahamiyat berila boshlandi. Shu munosabat bilan ixtiyoriy shaxsiy sug'urtaning ko'pchilik qoidalari qaytadan ko'rib chiqildi, qo'shimcha pensiya va boshqa sug'urta turlari joriy qilindi.

Sakkizinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning muhim ahamiyatiga alohida e'tibor berilib, sug'urtaning yangi turlarini amalga oshirishga kirishildi.

To'qqizinchidan, sug'urta faoliyati bilan qimmatli qog'ozlar o'rtasida tegishli munosabat o'rnatildi. Sug'urta tashkilotlari o'zlarining qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishlari va qimmatli qog'ozlar bozorida oldi sotdi ishlarini amalga oshirishlarining huquqiy asoslari shakllantirildi. Shuningdek, sug'urta tashkilotlarining qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiya faoliyati yo'lga qo'yildi va rag'batlantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil IV chorak yakuni holatiga O'zbekiston sug'urta tashkilotlarining umumiyligi soni 42 tani tashkil etdi, ularning ustav jamg'armalari so'mdagi miqdori 1545784 mln. so'mni tashkil yetdi. Ustav kapitalining so'mdagi qiymati o'tgan moliya yilining xuddi shu davriga nisbatan 109 foizga o'sgan. Quyidagi jadvalda O'zbekiston sug'urta bozorining subyektlari va uning tuzilishi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorining tuzilishi³

Sug'urta tashkilotlari soni	42	41	-2.4%
<i>shu jumladan hayot sug'urtasi bo'yicha</i>	8	8	0%
Sug'urta tashkilotlarining umumiyligi ustav kapitali (mln. so'mda)	1,589,808	1,884,111	+18.5%
Sug'urta brokerlari soni	5	7	+40.0%
Aktuariylar soni	5	5	0%
Sug'urta agentlari soni	9,581	9,155	-4.4%
<i>shu jumladan yuridik shaxslar</i>	2,820	2,625	-6.9%

³Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI saytining 2023-yil moliya yili hisobotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi



To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlarining soni	23	25	+8.7%
--	----	----	-------

O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorida sug'urta mukofotlar umumiy tushumi yig'indisi o'sib borishi bilan birga, uning YAIMdagi ulushi ham ortib bormoqda. 2023-yilning 1-choragi holatiga ko'ra, sektor o'tgan yilga nisbatan qariyb 29 foizga o'sdi. 2022-yilda umumiy bozor qiymati qariyb 67 foizga o'sdi⁴. Bozor hajmi 2022-yil oxiriga kelib yalpi mukofot 6,2 trillion so'mdan oshdi (taxminan 521 million yevro).

2017-2022 yillar oralig'ida sug'urta penetratsiyasi darajasi (sug'urta mukofoti yalpi ichki mahsulotga nisbatan) o'rtacha bo'lib qolmoqda va 2017-2022 yillar oralig'ida 0,34% dan 0,7% gacha o'zgarib turibdi. Ham hayot, ham umumiy sug'urta mavjud, ammo umumiy sug'urta hozirda kattaroq bozor ulushiga ega. 2023-yilda hayotni sug'ortalash bo'yicha to'lovlar umumiy sug'urta bo'yicha 157,3 milliard so'mga (taxminan 129 million yevro) nisbatan 65,8 milliard so'mga (taxminan 54 million yevro) yetdi⁵.

2017-yildan boshlab O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish ularning jadal o'sishini ko'rsatadi. 2017-2023-yillarda yalpi hisoblangan sug'urta mukofotning nominal o'sishining o'rtacha yillik sur'ati yiliga 215%ni tashkil etdi. Ushbu davrda mamlakat yalpi ichki mahsulotining nominal o'sishining o'rtacha yillik sur'ati 130%ni tashkil etgan edi. Ushbu moliya yillari davomida eng ko'p miqdordagi investitsiyalar ulushi esa xususan omonatlarni sug'ortalash uchun deyarli 60 % so'ngra qimmatli qog'ozlarni sug'ortalash 27 %, keyingi navbatlarda ko'chmas mulkni sug'ortalash va zaymlar uchun investitsiyalarni tashkil qilgan (2-jadval).

2-jadval

Sug'ortalovchilarining investitsion faoliyati⁶

Ko'rsatkich nomi	12/31/2017		12/31/2023		O'zgarish, %
	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami investitsiyalar, shu jumladan:	3,746,676	100%	4,751,745	100%	+26.8%
Depozitlar (omonatlar)	2,208,573	58.9%	2,896,636	61.0%	+31.2%
Qimmatli qog'ozlar	1,095,976	29.3%	1,287,917	27.1%	+17.5%
Zaymlar	47,449	1.3%	60,776	1.3%	+28.1%
Ko'chmas mulk	247,351	6.6%	358,944	7.6%	+45.1%

⁴ Xprimmm.com sayti ma'lumoti

⁵ Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi hisoboti

⁶ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI saytining 2023-yil moliya yili hisobotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi



Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	142,203	3.8%	118,221	2.5%	-16.9%
Boshqa investitsiyalar	5,122	0.1%	29,252	0.6%	+471.1%

Valyuta siyosatini liberallashtirish, kreditlash hajmining o'sishi, uy-joy va infratuzilma qurilishiga investitsiyalarning ko'payishi sug'urta xizmatlariga talabning o'sishiga, sug'urta mahsulotlarining yangi turlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Buning natijasida 2023-yilda yalpi sug'urta mukofoti hajmi 6231,7 mlrd so'mni tashkil etdi (555,1 mln dollar). O'zbekistonda ushbu ko'rsatkichning qiymati so'nggi yillarda 0,32 dan 0,5% gacha bo'lgan, 2023- yil yakunlariga ko'ra yalpi ichki mahsulotdagi sug'urta mukofotining ulushi 0,7%ni tashkil etdi. Ulardan 4707,0 mlrd so'm. (VSP umumiy hajmining 76 foizi) umumiy sug'urta bo'yicha, 1504,7 mlrd so'm. (24%) - hayotni sug'urtalash bo'yicha. Quyidagi jadvalda yalpi sug'urta mukofoti hajmining asosiy bozor ishtirokchilari o'rtasida 2322-23 yillardagi taqsimoti keltirilgan(3-jadval).

3-jadval

Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta mukofotlari to'g'risidagi ma'lumotlar⁷

Sug'urta kompaniyalari nomi	Sof sug'urta mukofotlari *			Umumiy sug'urta mukofotlari		
	12/31/20 22	12/31/20 23	O'zgaris h, %	12/31/20 22	12/31/20 23	O'zgaris h, %
Umumiy	2,264,496	3,527,083	+55.8%	2,995,707	4,672,270	+56.0%
"APEX INSURANCE" AJ	184,536	576,972	+212.7%	229,112	782,518	+241.5%
"O'ZBEKINVEST" EISK AJ	303,655	565,642	+86.3%	385,385	930,534	+141.5%
"O'ZAGROSUG'URT A" AJ	141,101	276,748	+96.1%	260,975	323,286	+23.9%
"KAPITAL SUG'URTA" AJ	99,462	126,439	+27.1%	116,648	149,672	+28.3%
"ALFA INVEST SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	74,164	92,827	+25.2%	156,314	301,867	+93.1%
"ALSKOM SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	49,999	90,938	+81.9%	52,573	92,746	+76.4%
"TEMIRYO'L SUG'URTA" AJ	65,192	89,446	+37.2%	135,316	156,438	+15.6%
"SQB INSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	61,626	64,765	+5.1%	72,402	78,156	+7.9%

⁷Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI saytining 2023-yil moliya yili hisobotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi



EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

UIF = 8.3 | SJIF = 7.984

www.in-academy.uz

"IMKON SUG'URTA" AJ	76,441	63,783	-16.6%	77,524	64,526	-16.8%
"ASIA INSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	50,419	53,763	+6.6%	55,720	57,780	+3.7%

Shu bilan birga, rivojlanayotgan bozorlarda aholi jon boshiga o'rtacha sug'urta xarajatlari taxminan 150 dollarni tashkil etadi, shundan 34% hayotni sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari va 66% umumiyligi sug'urtala sug'urtalash bo'yicha. AQSh va Kanada kabi mamlakatlarda yiliga 4 ming dollardan ortiq. O'zbekistonda 2022-yil yakunlariga ko'ra, har bir aholiga sug'urta mukofoti hajmi atigi 173,0 ming so'mni (ya'ni 15 dollardan sal ko'proq) tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda ko'rsatkich qiymati 51,29 ming so'mni, 2023-yilda esa 103,5 ming so'mni tashkil etadi. 2022- va 2023-yillarda sug'urta to'lovlari hisobotlari solishtirilganda, hududlar orasida sug'urta to'lovlaringin yuqoriligi bilan Andijon, Navoiy va Toshkent shahri o'sishni saqlab qolgan bo'lsa, Toshkent, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarida to'lovlar hajmi sezilarli kamaygani ko'zga tashlanadi(4-jadval).

4-jadval

Sug'urta to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar⁸

№	Hudud	Sug'urta to'lovlari		
		12/31/2017	12/31/2023	O'zgarish,%
	Umumiy	1,235,061	2,596,926	+110.3%
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	44,081	62,047	+40.8%
2	Andijon	29,363	84,852	+189.0%
3	Buxoro	23,900	45,823	+91.7%
4	Jizzax	23,110	42,267	+82.9%
5	Qashqadaryo	16,930	27,231	+60.8%
6	Navoiy	32,977	76,040	+130.6%
7	Namangan	48,818	90,095	+84.6%
8	Samarqand	39,020	43,542	+11.6%
9	Surxondaryo	47,827	25,207	-47.3%
10	Sirdaryo	34,434	27,061	-21.4%
11	Toshkent	104,945	96,018	-8.5%
12	Farg'ona	52,549	73,115	+39.1%
13	Xorazm	24,300	39,482	+62.5%
14	Toshkent shahri	712,807	1,864,147	+161.5%

Davlat ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari bir necha yillar davomida etakchi bo'lib kelmoqda, ammo ularning mamlakat sug'urta bozori sharoitlariga ta'siri yildan-yilga pasayib bormoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, 2017-2023-yillarda umumiyligi sug'urta sohasida davlat ishtirokidagi kompaniyalarning umumiyligi ulushi 1,5 baravar kamaydi .

Shunday qilib, bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorining holati quyidagi ijobjiy tendentsiyalar bilan ajralib turadi:

- umumiyligi sug'urta mukofoti hajmining yuqori o'sish ko'rsatkichlari (har yili kamida 10%);

⁸Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI saytining 2023-yil moliya yili hisobotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi



- umumiy sug'urta tarmog'ida bozorda 40 ta sug 'urta kompaniyasi, shu jumladan ulardan uchtasi – davlat ishtirokida, 20 yildan ortiq vaqtdan beri ichki sug'urta bozorida faoliyat yuritib kelayotgan va aslida milliy brendlari "Uzinsurance" aksiyadorlik kompaniyasi (sobiq "O'zagrosugurta") va "O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi, shuningdek, hayotni sug'urtalash sohasidagi 8 ta kompaniya;
- mamlakatning barcha mintaqalarida filiallar, vakolatxonalar va sug'urta agentlari tarmog'i orqali sug'urtalovchilarning yuqori darajadagi ishtiroki;
- ko'p sonli sug'urta agentlari mavjudligi (7 mingdan ortiq) bilan soha rivojlanishi uchun qo'yilayotgan qadamlar to'g'ri va samarali ekanligini ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar

O'r ganib chiqilgan tahlillar milliy sug'urta bozorining rivojlanishidagi bir qator ijobjiy tendentsiyalarni aniqlashga imkon berdi. Biroq, ijobjiy tendentsiyalar bilan bir qatorda, mahalliy sug'urta bozori rivojlanishining salbiy tomonlarini ham qayd etish kerak:

- aholini sug'urta bilan qamrab olish darajasining pastligi (ixtiyoriy turlar bo'yicha chakana sotuvlarning nihoyatda kichik hajmi);
- mahalliy sug'urtalovchilarda respublika aholisiga mo'ljallangan sug'urta mahsulotlarini sotish kanallari deyarli yo'qligi, sug'urta kompaniyalari asosan korporativ mijozlar bilan ishlashi;
- mahalliy sug'urtalovchilar mamlakatda sug'urta madaniyati darajasini oshirish uchun yetarli darajada ishlar olib bormasliklari;
- xususiy va kichik biznes vakillari, shuningdek, aholi o'rtasida sug'urta madaniyati darajasining pastligi. Bu holda sug'urta madaniyati sug'urta uchun ketgan moliyaviy xarajatlarni maqsadga muvofiq va kerakli ekanligini ongli ravishda idrok etishni anglatadi;
- majburiy sug'urta turlarining rivojlanmaganligi;
- aksariyat sug'urta kompaniyalarining zaif kapitallashuvi;
- fuqarolarning hayoti va sog'lig'i sug'urtasining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- yuridik va jismoniy shaxslarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini aks ettirmaydigan, amalda taklif etilayotgan sug'urta xizmatlarining turlari cheklanganligi;
- sug'urta faoliyatini, ayniqsa, majburiyatlar va zaxiralar nisbati me'yori masalalarida davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning yetarli darajada emasligi;
- sug'urtaning majburiy turlari bo'yicha sug'urta tariflarining davlat tomonidan asossiz cheklanishi;

Yuqoridaq aytib o'tilganlar asosida O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlantirish chora-tadbirlar majmuasiga quyidagi takliflar kiritildi:

1. Aholining sug'urta madaniyatini rivojlantirish bo'yicha 3 yillik faol reklama va marketing kompaniyasini o'tkazishni nazarda tutuvchi keng ko'lamlı Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.
2. Kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini sug'urta institutiga quyidagilar yordamida faol jalb etish:
 - a) kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari vakillarini qiziqtiradigan ishonchli, zamonaviy sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish;
 - b) sug'urta xizmatlarining maqsadli marketingini o'tkazish;
 - c) sug'urtaning ushbu istiqbolli yo'nalishini rivojlantirish uchun davlat miqyosida rag'batlantiruvchi omillarni joriy etish.



3. Sug'urta biznesini kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va aholi kesimida raqamlashtirish bo'yicha kompleks rag'batlanadirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatishning asosiy hajmini onlayn rejimga o'tkazish.
4. Sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta majburiyatlarini bajarishning aniq, tiniq va qat'iy qoidalarini ishlab chiqish, shuningdek, majburiyatlar buzilgan taqdirda sug'urta tashkilotlarining majburiyatlarini qat'iy qoidalar asosida so'zsiz bajarishni nazarda tutuvchi qattiq jazo choralarini qo'llash, sug'urta kompaniyalarining mijozlari o'zlarining manfaatlarini himoya qilish bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqishning puxta o'ylangan tartiblarini ishlab chiqish.

References:

1. "Sug'urta faoliyati to'g'risida" 23.11.2021 dagi O'RQ-730-son O'zbekiston Respublikasining Qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-5739117>
2. "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
3. "O'zbekiston respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-4459802>.
4. R.Azimov. Straxovanie v Uzbekistane: istoriya, sovremennoe sostoyanie, vizovi v prosesse razvitiya, straxovanie vneshneekonomiceskoy deyatel'nosti. -T:"TURON-IQBOL", 2021, 168s.
5. Arxipov A.P. Straxovanie. Sovremenniy kurs: uchebnik/ A.P.Arkipov, pod red. Ye.V. Kolomina. -M.: Finansi i statistika, 2007. -416s.
6. <http://www.mf.uz>
7. <http://www.UzReport.com>
8. <http://www.agros.uz>
9. <http://www.uzbekinvest.uz>